

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

2025-yil 27-fevral, payshanba,
24 (24.050)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz


**O‘zbek xalq maqoli**

Eling senga cho‘zsa qo‘l, unga doim sodiq bo‘l

# VATAN RAVNAQI, TINCHLIGI VA HIMOYASI YO‘LIDAGI QAHRAMONLIK UNUTILMAYDI

**Bu yil dunyo xalqlari Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligini nishonlaydi. O‘tgan yillar davomida sayyoramiz manzarasi o‘zgarib, yer yuzining turli mintaqalarida notinchliklar kuzatilayotgan, katta va kichik mamlakatlar manfaatlari turli nuqtalarda to‘qnashayotgan bo‘lsa-da, o‘tgan asr o‘rtalaridagi urushning sabab va oqibatlari unutilgan emas. Tinchlik qadr-qimmati oshib bormoqda. Shuning uchun ham 9-may ayrim davlatlarda g‘alaba kuni, ba’zilarida urush qurbonlarini yod etish bilan bog‘liq sana sifatida qayd etiladi. Lekin aksariyat dunyo xalqlari uchun bu sana Ikkinchi jahon urushining tugashi, insoniyatning fashizm ustidan g‘alabasi kuni.**

Jumladan, mamlakatimizda 9-mayni Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlash bugun ham rasman, ham xalqimiz tomonidan taomilga aylantirildi.

Bu yil ushbu sanaga tayyorgarlik, munosib nishonlashga ancha erta kirishildi. O‘tgan hafta davlatimiz rahbari tomonidan “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida” farmon hamda “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida” qaror qabul qilindi.

Qayd etilganidek, yurtimizda Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga hissa qo‘shgan urush va mehnat faxriylariga hamda Vatanimiz taraqqiyoti va uning himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e’tibor va chuqur ehtirom ko‘rsatish, shuningdek, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini ulug‘lash olijanob qadriyatga aylangan. Ularning Vatan himoyasi yo‘lidagi yuksak mardlik va qahramonliklari bugun yosh avlod uchun ertakdek tinglansa-da, katta ibrat maktabidir.

Afsuski, bugun jangu jadallarda mardlik, fidoyilik ko‘rsatib, nainki oila a’zolari, balki davlatimiz, xalqimiz e’zozida umr kechirayotgan, asrga tengdosh insonlar juda kam va ularni qadrlash har birimizning muqaddas burchimizdir.

– Bugungi kunda viloyatimizda atigi to‘rt nafar urush qatnashchisi hayot kechirmoqda, – **deydi “Nuroniy” jamg‘armasi viloyat bo‘limi raisi Shuhrat Negmatov.** – Ular – Kattaqo‘rg‘on tumani Bog‘ot mahallasida yashovchi Rahmat Qobilov, Samarqand tumani Saxovat mahallasidan Ahad Ochilov, Urgut tumani Ispanza mahallasida istiqomat qiluvchi Bo‘ron Gadoyev hamda Samarqand shahar Bog‘i Temur mahallasidagi Mixail Kolmogorov – har birlari yuz yoshli otaxonlar. Afsuski, endi ularni sanashga barmoqlarimiz yetadi va bu ko‘nglimizga og‘ir botadi. Bugun bu nuroniylarimiz yashayotgan xonadonlar eng aziz ostonalardan biri, rahbarlar ham, mahalla ahli ham har kuni yo‘qlab turishadi. Nafaqat Xotira va qadrlash kunida, balki boshqa bayramlar munosabati bilan ham shaxsan davlatimiz rahbari ularga tabrik, sovg‘a-salomlar yo‘llamoqda. Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, bu yil Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi munosabati bilan ularga 10 ming AQSh dollaridan bir martalik pul mukofoti beriladi. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslarning har biriga 25 million so‘mdan, 1941–1945-yillardagi urush davridagi mehnat fronti qatnashchilarining har biriga esa 3 million so‘mdan pul mukofotlari berilishi belgilandi. Viloyatimizda ayni paytda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslar yo‘q, lekin urush davridagi mehnat fronti qatnashchilari ko‘pchilik – 263 nafarni tashkil etar ekan. 90-100 yoshli bu nuroniy otaxon va momolarimiz doimiy e’tiborimizda. Hozirda ularning ro‘yxatlari tuzilib, hokimliklar, davlat va jamoat tashkilotlariga yetkazilgan, bayram munosabati bilan pul mukofotlari tantanali topshirilishi bilan birga har birlaridan hol so‘ralib, sovg‘a-salomlar ulashiladi.



Raxmat Qobilov



Ahad Ochilov



Bo‘ron Gadoyev



Mixail Kolmogorov

Umuman, davlatimiz rahbarining qarorida bu yil 9-mayni har qachongidan ham yuqori saviyada nishonlash, tadbirlarni “Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi” shiori ostida o‘tkazish belgilandi.

Urush va mehnat fronti qatnashchilari xonadonlariga davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari, harbiy qismlar komandirlari, davlat va jamoat arboblari, faxriylar, fan, madaniyat va san’at namoyandalari, yoshlar borgan holda ular ko‘rsatgan mardlik va jasorat madh etilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi. Zaruratga qarab, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining yashash joylari ta’mirlanadi, obodonlashtiriladi.

– Prezidentimiz qarorida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo‘lgan shaxslarning har biriga tibbiy xizmat ko‘rsatish hamda ularni parvarish qilish maqsadida tibbiyot xodimlarini biriktirgan holda doimiy ravishda patronaj xizmatini yo‘lga qo‘yish belgilanishi ham ularga davlatning yuksak e’tibori namunasi, – deya so‘zida davom etadi Sh.Negmatov. – Aslida, shu paytgacha ham bu nuroniylarimizning salomatligi, ularga tezkor va sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatilishi asosiy masalalardan biri edi. Muntazam ravishda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, zarur dori-darmon bilan ta’minlab kelinmoqda. Endi esa bu e’tibor yana ham kuchayadi. Bundan tashqari, urush qatnashchilarining xohishlariga ko‘ra respublika hududidagi sanatoriylarga bir nafar kuzatuvchisi bilan bir martalik bepul yo‘llanmalar taqdim etiladi. Ayni paytda jamg‘arma viloyat bo‘limi va tuman, shaharlardagi bo‘linmalarimiz davlatimiz rahbari farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun hamkor tashkilotlar bilan chora-tadbirlarni belgilab olyapmiz. Bu ezgu ishlarni Ramazon oyida, Navro‘z umumxalq bayrami kunlarida boshlab, yil davomida amalga oshirib boramiz. Mahallalar, ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda uch avlod uchrashuvlari tashkil etamiz, bobolarimiz jasoratini ulug‘lovchi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar uyushtiramiz.

**G‘olib HASANOV.**

## YUBILEY MEDALI TA’SIS ETILDI

**Prezident farmoniga ko‘ra, 1941-1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi sharafiga “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali ta’sis etildi.**

Yubiley medali bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari:

– “1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun” va “Yaponiya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun” medallari bilan, urush yillarida jangovar xizmatlari uchun boshqa orden va medallar bilan mukofotlangan yoki urush qatnashchisi guvohnomasiga yoxud Vatan urushi nogironi guvohnomasiga ega bo‘lgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilganlar;

- Ikkinchi jahon urushi yillaridagi front orti mehnat faxriylari, shu jumladan, “1941-1945-yillar Ulug‘ Vatan urushidagi shavkatli mehnati uchun”, “Mehnatdagi jasorati uchun”, “Mehnatda o‘rnak ko‘rsatganligi uchun” medallariga yoki 1941-1945-yillardagi urush davrida Qurolli Kuchlarda fuqaro shaxslarni erkin yollash bo‘yicha shtat lavozimida bo‘lganligi to‘g‘risidagi guvohnomaga ega bo‘lgan mehnat fronti qatnashchilari mukofotlanadi.




## UCH TUMANDA HOKIM YANGILANDI

**26-fevral kuni xalq deputatlari Jomboy, Nurobod va Paxtachi tumanlari Kengashlarining navbatdan tashqari sessiyalari o‘tkazildi.
Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev ishtirok etgan sessiyalarda tashkiliy masalalar ko‘rildi.**



*Shu paytgacha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i lavozimida ishlagan **Xurshid Oripovich Nazarov** Jomboy tumani hokimi etib tasdiqlandi.*



*Nurobod tumaniga “Agrobank” aksiyadorlik tijorat bankining Samarqand viloyati boshqarmasi boshlig‘i lavozimida faoliyat ko‘rsatgan **Maqsud Erkinovich Bo‘ronov** hokim etib tayinlandi.*



*Paxtachidagi sessiyada deputatlar ayni vaqtgaqadar viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi rahbari vazifasida ishlagan **Qayum Norbekovich Xushbaqov**ni tuman hokim lavozimiga tasdiqladilar.*

*Sessiyalarda viloyat rahbari A.Boboyev hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi uchun muhim turmush sharoitini yaratish yuzasidan yangi tayinlangan hokimlar va faollar oldida turgan vazifalarga to‘xtaldi.*

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev kecha maktabgacha va maktab ta’limi sohasi mas’ullari bilan uchrashdi.

Uchrashuvda tizimda mavjud muammolar va ularni hal etish yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar haqida so‘z yuritildi.

Shu paytgacha Paxtachi tumani hokimi lavozimida ishlagan **Muzaffar Hamdamov** viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i etib tayinlangani ma’lum qilindi.

Ko‘rgazma








## “AGRO PRO EXPO – 2025”: YANGI TEXNOLOGIYA VA ISHLANMALAR KO‘RGAZMASI

**Jomboy tumanidagi “SOF EXPO Samarkand” xalqaro ko‘rgazmalar majmuasida agronomiya sohasidagi mahalliy va xorijiy korxonalarning “AGRO PRO EXPO-2025” xalqaro ko‘rgazmasi boshlandi.**

To‘rtinchi bor o‘tkazilayotgan ko‘rgazmada O‘zbekistonning barcha hududlari, shuningdek, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Turkiya, Eron, Niderlandiya, Xitoy va boshqa MDH davlatlarining 110 dan ortiq yetakchi kompaniya va ishlab chiqaruvchilari o‘z mahsulot va xizmatlarini taqdim etyapti.

Bu yilgi ko‘rgazmada qishloq xo‘jaligiga raqamli texnologiyalarni jalb etishga qaratilgan ishlanmalar, serhosil va kasallikka chidamli urug‘lar, muqobil energiya vositalari yordamida ishlaydigan sug‘orish texnologiyalari, o‘rish-yig‘ish, saralash va qadoqlash texnikalari namoyish etilmoqda.

- Korxonamiz Xitoyning qishloq xo‘jaligi ekinlarini dronlar yordamida sug‘orishga ixtisoslashgan dunyodagi yetakchi “Dji” kompaniyasining Buxoro viloyatida joylashgan vakili hisoblanadi, - deydi “Mergantex” klaster korxonasi direktori Nurali O‘rinov. – Bu dronlardan Xitoy texnologiyasi asosida paxta xomashyosi yetishtirishda keng foydalaniladi. Ekologiyaga zararsiz bo‘lgan dronlar bittasi bir kunda 100 gektar maydonni granula va suyuq o‘g‘itlar bilan oziqlantirishi mumkin. Bundan tashqari, g‘alla, sholi, makkajo‘xori ekinlari, texnikada ishlov berish imkonsiz maydonlar, lalmi yerlarda ham foydalansa bo‘ladi. Hozircha Samarqand viloyatidagi klaster korxonalaridan 20 ta dron yetkazib berish bo‘yicha buyurtma oldik. Dronga servis xizmati ko‘rsatish bo‘yicha ham hamkorlik qilamiz va 500 dan ortiq ehtiyot qismlarini yetkazib beramiz.

- Korxonamiz yangi avlod quyosh panellarini o‘rnatish bilan shug‘ullanadi, - deydi “Sam solar” kompaniyasi menejeri Murod Jo‘raqulov. – Elektr energiyasining narxi oshgandan so‘ng xonadon, zavodlar, do‘konlar va ayniqsa, havo tarmog‘i tortish imkoni bo‘lmagan joylarga muqobil energiyadan foydalanib, suv chiqarish uskunalarini o‘rnatishga talab ortgan. Elektr energiyasiga limit o‘rnatilgandan so‘ng xonadon, do‘konlardan akkumulyatorsiz quyosh panellari o‘rnatishga buyurtma ko‘paydi. Yana dehqonlarimiz tomonidan elektr bormaydigan maydonlarga suv chiqarish uchun “izgrid” tizimidagi panellar o‘rnatishga qiziqish yuqori bo‘lmoqda. Bu tizim quyoshsiz bulutli havoda ham 70 metrgacha chuqurlikdan suv chiqarib beradi. Bu uskunaga aholi xonadonlari, xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, umumiy ovqatlanish yo‘nalishidagi tadbirkorlardan qiziqish ortmoqda.

Ko‘rgazma bugun yakunlanadi.

**O‘ktam XUDOYBERDIYEV.**

# KO‘HNA KENTNING YANGI DURDONASI

## Shirin shaharchasi xalqimiz bunyodkorligining yangi namunasi bo‘ladi

**Samarqand tarixining sha’ni shundaki, bu o‘lkani boshqargan har bir shaxs o‘zidan yodgorlik qoldirishga harakat qilgan. Binobarin bu yodgorliklarning barchasi dunyoviy ilmlar va mahalliy hunarmandlar, me’morlar va boshqa kasb egalarining zakovati bilan bog‘liq. Amir Temur barpo etgan obidalar, inshootlar haqida to‘xtalib o‘tish shart emas. Chunki bu har birimizga yod bo‘lib ketgan. Mirzo Ulug‘bek Rasadxonasidan tashqari registonda masjid va madrasa barpo etgan.**



Bahodir Yalangto‘sh Sherdor va Tillakori obidalari barobarida o‘nga yaqin ko‘prik, Devonbegi madrasasi qurilishiga bosh bo‘lgan, Siyob bozorini Registondan hozirgi joyiga ko‘chirgan. Shayboniyxon ham ana shunday ulug‘ ishlarning boshida turgan. Xususan, Zarafshon daryosining Samarqand shahri yonidan o‘tuvchi qismida yangi suv yo‘llari va ko‘priklar barpo qilgan. Chunki o‘sha davrda yuzaga kelgan qurg‘oqchilik suvdan oqilona foydalanishni taqozo etgan.

Bugun esa o‘z davrida qurilgan obida, Zarafshon daryosining ikki oqimi – Oqdaryo va Qoradaryo o‘rtasidagi maydonlar va sohillarda juda katta bunyodkorlik ishlari boshlab yuborildi. Gap yillar davomida qisman tartibga keltirilgan bo‘lsa-da, e’tibordan chetda qolgan maydonlar ustida bormoqda. Aynan ana shu joyda Samarqand va Oqdaryo tumanlari hududlari kesishadi. Daryoning janubiy qirg‘og‘i Samarqand shahriga tegishli.

Aslida bu muammo bundan 50 yil oldin ko‘tarilgan edi. Ikkala daryo qirg‘og‘ida Farhod va Shirin shaharchalari qurilishi boshlangan edi. To‘g‘ri, Farhod qo‘rg‘onida ul-bul qilindi. Chunki qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar joylashganligi sababli ishchilar uchun qurilgan uy-joylar, maktab, bog‘cha va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari unga shaharcha tusini berdi. Shirin shaharchasiga mo‘ljallangan yerlarning katta qismi samarasiz yotdi yoki dala hovlilarga aylantirildi.

Nihoyat bu maydonga e’tibor tushdi. Davlatimiz rahbari masalani joyida o‘rganganida bu yangi shaharcha O‘zbekiston taraqqiyotining, olimlarimiz aql-zakovatining, binokorlarimiz kuch-qudratining timsoli bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. Binobarin, loyihalar, rejalar ham ana shu da’vatga munosib tarzda shakllandi. Ikki daryo oralig‘idagi bu orolchalarni birlashtirish, aqlli shahar barpo etishga bel bog‘landi.

Xo‘sh, bu yerda nimalar barpo etiladi?

Avvalambor, aytish kerakki, bunyodkorlik ishlari uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda 2025-yil oxirigacha 19 ta biznes markazi, 6 ta ko‘p qavatli uy-joy, shuningdek, Toshkent xalqaro kimyo universiteti filiali binosi barpo etiladi. Shaharcha ichki va tashqi kommunikatsiya tarmoqlariga ulanadi. Ayni paytda bu ishlar qizg‘in davom etmoqda.

Ikkinchi bosqich doirasida, ya’ni 2026-2028-yillarda shaharchani Samarqand shahri bilan bog‘lovchi osma ko‘prik, 40 ta ijtimoiy soha obyekti, 240 ta turar va noturarjoy binolari, ichki avtomobil yo‘llari qurilishi mo‘ljallangan.

Uchinchi bosqich doirasida, ya’ni 2029-2030-yillarda shaharchani Samarqand shahar markazi va Samarqand turizm markazi bilan bog‘lovchi 7 kilometr uzunlikdagi yer usti metro yo‘li barpo etiladi, 15 ta madaniyat, savdo va yirik sport obyektlari quriladi. Muhimi shundaki, bu loyihalarni bevosita o‘zbekistonlik olimlar, mutaxassislar, quruvchilar yaratishyapti va amalga oshiryapti.

Darvoqe, bu aqlli shahar qurilishi uchun maxsus direksiya tashkil etilgan. Uning direktori, viloyat Kengashi deputati Akbar Qayumovning ta’kidlashicha, pirovardida bu maskanda 160 ming kishi istiqomat qiladi. Buning uchun 50 mingdan ziyod yuqori maosh to‘lanadigan ish o‘rni yaratiladi. Negaki, har bir ko‘cha va mahallada ana shunday maosh olish uchun imkoniyat yaratiladi. Ya’ni, bu yerda zamonaviy va raqamli texnologiyalar joriy etiladi. Xususan, Kimyo universiteti filiali uchun olib kelinadigan laboratoriyalar so‘nggi rusumdagi uskunalar bilan jihozlanadi.

Yangi shaharcha va ishbilarmonlar markazi butun borlig‘i bilan yashil makon bo‘ladi. Birinchidan, har bir bino tomida, albatta, quyosh paneli o‘rnatiladi. Imoratlarni qurishda faqat ekologik foydali qurilish materiallaridan foydalaniladi. Ayniqsa, suv yo‘lini boshqarishda qadimiy usul, zamonaviy charxpalakdan foydalaniladi.

Ikkinchidan, shaharchaga havoni tozalaydigan, kislorodga boy daraxtlar ekiladi.

Uchinchidan, jamoat transporti qatnovi mukammalligiga erishiladi. Maxsus gulchilik xo‘jaligi yo‘l yoqalari va uy-joylar atrofiga ekiladigan gullar aprobatsiyasi bilan shug‘ullanmoqda.

Barpo etiladigan mehmonxonalar yuksak darajada xizmat ko‘rsatadi. Xorijlik mehmonlarning shahar bilan, bu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, milliy an’analar bilan tanishishlariga imkon yaratiladi, oilaviy dam olish zonalari yaratiladi. Shuning uchun ham yangi mavzening auksionga qo‘yilayotgan yerlari uchun savdo nihoyatda qizg‘in, talabgorlar ko‘p.

Bundan ikki yilcha oldin davlatimiz rahbarining taklifi bilan Samarqand shahrini kesib o‘tuvchi Siyobcha kanali sohillari viloyat hokimligi rahbarligida obodonlashtirildi. Qisqa muddat ichida kanalning 17 kilometr uzunlikdagi qismi ikki tomoni ham aholining

**Deputat mulohazasi**

sayr qilishiga mo‘ljallab kengaytirildi, kanal ichi betonlashtirildi. Samarqandliklar o‘z qo‘llari bilan barpo etgan ana shu nafosatdan bugun o‘zlari bahramand bo‘lib turibdilar. Boshqa tumanlar markazlarida ham ariq va kanallar betonlashtirilib, ularning sohillari hordiq maskanlariga aylantirilmoqda. Demoqchimanki, viloyatda bu borada muayyan tajriba orttirildi. Shu sababli Oqdaryo va Qoradaryo sohilida barpo etilayotgan yangi shaharcha ham yaqin yillarda faxrimizga aylanadi. Hozirdanoq daryolarning obodonlashtirilgan 1,5 kilometrlik qismi atrofi chinakam saylgohga aylangan. Bu yer qishin-yozin aholi bilan gavjum.

So‘ngso‘zda shuni aytmoqchimanki, Oliy Majlis Senatining to‘rtinchi yalpi majlisida "Samarqand viloyatining Samarqand shahri, Samarqand va Oqdaryo tumanlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, Oqdaryo tumanidan 243 gektar, Samarqand tumanidan 170 gektar, jami 413 gektar yer maydoni Samarqand shahri tarkibiga o‘tkaziladi. Natijada amaldagi 252 gektardan iborat “Shirin” mavzesi hududi kengaytirilib, jami 665 gektar maydonni tashkil etadi. Tasdiqlangan master reja bo‘yicha hududda 180 ming aholiga mo‘ljallangan 60 mingta xonadondan iborat 254 ta ko‘p qavatli uy, 45 ta ijtimoiy soha obyekti quriladi.

Bu qaror yuqorida ta’kidlaganimdek, Zarafshon daryosi irmoqlari, Oqdaryo va Qoradaryo bo‘ylarining obod bo‘lishiga, zamonaviy va ko‘rkam aholi maskani yaratilishiga hamda pirovardida xalqimiz aqlu zakovati timsoliga aylanajak Shirin shaharchasining mukammal bunyod etilishiga xizmat qiladi.

**Farmon TOSHEV,**
**xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist.**

# Erta turmushning mushtlari

## Urgutda bu muammolar kamaydimi?

**Urgut tumanidan keyingi uch-to‘rt oyning ichida aliment pullarini ololmayotgan ayollardan bir nechta shikoyat xatlari keldi. Ularning birida jumladan, shunday fikrlar bildirilgan: “Ikki nafar farzandim, bir o‘g‘il va bir qizim bor. Turmush o‘rtog‘imning uchinchi ayoliman. Bilmay, tanimay, maqtashgani uchun ota-onamning roziligi bilan turmushga chiqqanman. Keyin bilsak, u bir necha marta uylangan ekan. Men bilan ajrashganiga sakkiz yil bo‘ldi. Lekin shu yillar davomida faqatgina 4 oy aliment to‘ladi. Keyin sen bilan yashayman, o‘zim katta qilaman bolalarimni, deya meni aldab, alimentdan voz kechtirdi. Endi umuman xabar olmay qo‘ydi. Nahotki unga biror chora ko‘rishning iloji bo‘lmasa?!”**

Aliment to‘lovi-ku, bir tomon, nega bu yerda ikkinchi, uchinchi turmushga go‘yoki bilmasdan rozi bo‘layotgan qizlar ko‘paygan? Umuman, tumanda erta va qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh ham ko‘pligi haqida uzoq yillardan beri bong urib kelinadi. Xo‘sh, bu holatlarni bartaraf etishda tumanda qanday ishlar amalga oshirilyapti? Erta turmush qurish va norasmiy nikohlarning oldini olishda nimalarga e’tibor qaratilmoqda?

- Haqiqatan ham tumanimizda qizlarning erta nikohi yoki maktab paytidanoq fotiha qilib qo‘yish odatlari shakllangan, - deydi Urgut tumani hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi rahbari Muhabbat Qobilova. - Bu turli iqtisodiy-ijtimoiy omillarga borib taqaladi. Yaxshi bilasiz, Urgut tumanida azaldan respublikamizdagi yirik bozorlardan biri mavjud. Aholi katta qismining rizqi shu bozor orqali shakllangan. Oila kattalari bilan bir qatorda bolalar ham kichik yoshidan boshlab bozor tartib-qoidalaridan xabardor o‘sadi. Hatto bozorgir mahsulotlarni o‘z vaqtida aniqlab, maktabni tugatar-tugatmas ishlab chiqarish bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyatini ham boshlab yuborganlari bor. Ular yoshligidan daromadni chamalay biladi, odamlar bilan muomala-munosabatda ancha pishiydi. Bir so‘z bilan aytganda, yigitlar hayot maktabiga ancha erta tayyor bo‘ladi. Bu bir tomondan yaxshi. Ammo boshqa tomondan shu va boshqa sabablar bilan hududda erta yoshli nikohlarga oddiy bir hol sifatida qaraydigan bo‘lishdi. Shuning barobarida bu holat qizlarning erta turmush qurishiga, ularning yetarli bilim egallamay, turmush sinovlariga duch kelishiga sabab bo‘ldi. Yosh qizning organizmi onalikka tayyor bo‘lmay, go‘daklar o‘limi va onalarning salomatligida jiddiy xastaliklar yuzaga kelishi kabi muammolar ko‘paydi. Urgutning markazi va ba’zi bir hududlarida esa faqat o‘z yaqinlaridan qiz tanlash holati deyarli odatga kirib qolgan.



Bu kabi holatlarning oldini olish uchun keyingi yillarda qator idoralar hamkorligida barcha jabhalarni qamrab olgan holda tadbirlar amalga oshirildi. Tuman ichki ishlar bo‘limi, tibbiyot sohasi vakillari, "mahalla yettiligi" bilan birgalikda ish olib bordik. Targ‘ibot ishlari bilan bir qatorda erta nikohga yo‘l qo‘yayotgan ota-onalarga ham chora ko‘rildi. **O‘tgan yilning o‘zida 90 nafar ota-ona jazoga tortildi.**

Qolaversa, umumta’lim maktablarida boshlang‘ich xotin-qizlar tashkiloti faollari bilan doimiy ish olib borildi. Xususan, o‘quvchilar, ularning ota-onalari bilan mutaxassislarning uchrashuvlari tashkil etilib, erta va qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning salbiy oqibatlari ko‘rgazmali misollar bilan tushuntirildi.

To‘g‘ri, ajralishlar soni ko‘paydi. Ammo bunga birinchi turmushi bilan yashamaydigan, rasmiy nikohsiz ayoli bilan yashab kelayotgan oilalarni o‘rganishimiz sabab bo‘ldi. Afsuski, bu oilalar uzoq yillar davomida shu taxlit yashab kelishgan. Ularning biri bilan ajrimni qayd ettirib, yashayotgan oilasi bilan nikohni rasmiylashtirish ishlarini olib bordik.

- 2022-yilda ish boshlaganimda respublika miqyosida xotin-qizlar muammolarini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan xatlov ishlari keng ko‘lamda olib borilayotgan edi, - deydi Urgut tumanidagi Mergancha mahallasi xotin-qizlar faoli Zulayho G‘afurova. – Shu o‘rganishlar davomida mahallamizda nogiron farzandi bor oilalar boshqa mahallalarga nisbatan ko‘proq ekani e’tiborimni tortdi. Hozir ham ularning soni 19 ta. Ushbu oilalarni o‘rganganimda aksariyati qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh natijasida kelib chiqqani ma’lum bo‘ldi. Keyin shunday nikohlarni jamlab chiqdim, hali yosh, farzand ko‘rishi mumkin bo‘lgan oilalarning 30 foizi qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar sirasiga kirar ekan. **Bir yilda o‘ndan ziyod erta turmush qurish holatlari aniqlangan.** Bu holatlarni bartaraf etishni birinchi navbatda maktabdan boshladik. Tayyor misollar o‘z mahallamiz, qo‘shnilarimizda yetarli edi. Bu misollarni va ularning sabablarini tushuntirdik. Tabiiyki, barcha suhbatlarimizga ichki ishlar, tibbiyot xodimlari, diniy idora vakillari, otinoyilarni ham jalb etdik. Hududimizga qarashli 56 va 154-maktab bilan hamkorlikni uzmadik. Ayniqsa, tumanda Samarqand davlat universitetining filiali ochilishi bu masalada juda qo‘l keldi. Ota-onalari uzoq hududlarga o‘qishga jo‘natmaydigan qizlarimiz o‘z tumanimizdagi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotir. Nafaqat qizlar, balki yoshi katta ayollar ham bugun ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar uchun oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun shartnoma pullarini to‘lashda joriy etilgan imtiyozlardan foydalanmoqda.

Shu kabi tadbirlar tufayli mahallamizda o‘tgan yili qarindoshlar o‘rtasidagi va erta nikoh umuman uchramadi, ajralish qayd etilmadi.

**Mutasaddilar erta nikoh, qarindoshlar o‘rtasida oila qurish kabi holatlarga chek qo‘yilyapti, ammo hali to‘la bartaraf etilgani yo‘q, deya takror-takror ta’kidlashdi. Haqiqatan ham shunday. Qolaversa, tumanda hamon maktab yoshidagi qizlarning fotiha to‘yi, ya’ni belgilab qo‘yish marosimlari o‘tkazilishini ham rad etib bo‘lmaydi. Umumta’lim maktablari, xotin-qizlar faollari bu masalada tushuntirish ishlari olib borilayotgan bo‘lsa-da, ammo chora ko‘rishga haqqimiz yo‘q, deyishdi.**

Rostdan ham chora ko‘rishga haqqimiz yo‘q, ammo yillar o‘tib na kasb, na hunar egallab, erta turmush qurgach, oilasidagi muammolar tufayli yuqoridagi kabi aliment to‘lovlarini undirolmay, farzandlari bilan qiynalib yurgan onalarni ko‘rib, chora topolmayotganimiz ham haqiqat. Maktab yoshidagi qizlar esa bunday ayollar haqida xabari yo‘q, yonidagi sep yig‘ayotgan qizga, qulog‘iga egali, deya taqib ketilgan tilla zirakka mahliyo. Bu mahliyolik ularning orzu-havasiga, maqsadiga aylanib ketmasa bo‘ldi.



**Gulruh MO‘MINOVA.**

# “KELIN KUNDALIGI”

## indoneziyaliklarni O‘zbekistonga qiziqtiradimi?

**Samarqandda O‘zbekiston-Indoneziya turizm forumi bo‘lib o‘tdi. Unda ikki mamlakatning yirik turizm sohasi vakillari, turoperatorlar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.**




Anjumanning ochilish marosimida viloyat hokimi o‘rinbosari Rustam Qobilov va Indoneziyaning O‘zbekistondagi muvaqqat ishlar vakili Sintiya Krishtianu Sayeh xonim keyingi yillarda ikki mamlakat o‘rtasida sayyohlar oqimi sezilarli darajada oshganini qayd etdi.

- Xususan, Indoneziya markaziy statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda Indoneziyaga O‘zbekistondan kelgan sayyohlar soni 8130 nafarni tashkil qilmoqda, - dedi o‘z so‘zida Sintiya Krishtianu Sayeh xonim. - Bu ko‘rsatkich 2023-yilga qaraganda 53 foizga ortgan. Aytish joizki, 2022-yilda sayyohlar soni bor-yo‘g‘i 559 nafar kishini tashkil etgan. Ushbu raqamlar O‘zbekistonda ham sezilarli oshgan, deb ayta olaman. Bularning barchasi ikki davlat orasida o‘zaro hamkorlik kuchaygani, tomonlarning madaniy hayoti, qadriyatlariga qiziqishi ortgani bilan bog‘liqdir.

Forumda Khatamedia kompaniyasi Indoneziyada O‘zbekiston turizmini targ‘ib qilish bo‘yicha faol ish olib borayotganini ta’kidladi.

Shuningdek, Tobali Films kompaniyasi O‘zbekistonda suratga olinadigan yangi film ustida ish boshlashni rejalashtirgani ochiqlandi. Mamlakatning mashhur yozuvchisi Asma Nadia qalamiga mansub “Catatan Hati Pengantin” (“Kelin kundaligi”) romani asosida suratga olinadigan ushbu film O‘zbekistonning betakror go‘zalligi va boy madaniy merosini butun dunyoga tanitishga xizmat qiladi.

Forum doirasida B2B uchrashuvlari ham tashkil etildi.

**REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e’lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56**

## SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI

**yuqori malakali professor-o‘qituvchilarni quyidagi kafedralardagi lavozimlarga tanlov asosida**

# ISHGA TAKLIF ETADI

| T/r | Lavozimlar va fanlar nomi | O‘rinlar soni |
|---|---|---|
| 1 | Dorivor o‘simliklar va oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasi mudiri | 1 ta |
| 2 | Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri | 1 ta |
| 3 | O‘simlikshunoslik kafedrasi professori (dehqonchilik) | 1 ta |
| 4 | Agrotexnologiya kafedrasi dotsenti (qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish) | 1 ta |
| 5 | Agrotexnologiya kafedrasi dotsenti (agrokimyo) | 1 ta |
| 6 | Dorivor o‘simliklar va oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasi dotsenti (qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash) | 1 ta |
| 7 | Dorivor o‘simliklar va oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasi dotsenti (chorvachilik) | 1 ta |
| 8 | Dorivor o‘simliklar va oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasi dotsenti (biologiya) | 1 ta |
| 9 | Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti (pedagogika) | 1 ta |
| 10 | Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti (iqtisodiyot) | 5 ta |

Hujjatlar *(rektor nomiga ariza, pasport nusxasi, ma’lumotnoma (obyektivka), 2 dona 3x4 cm. o‘lchamdagi fotosurat, tasdiqlangan ilmiy va uslubiy ishlar ro‘yxati, diplomlardan nusxalar, so‘nggi 3 yilda malaka oshirganligi to‘g‘risida hujjat nusxalari)* matbuotda e’lon chiqqan kundan boshlab, bir oy muddatgacha qabul qilinadi.

Nomzodlar zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi shart. Ilmiy daraja va unvonga ega bo‘lish, chet tilini yaxshi o‘zlashtirganlik tanlovda ustunlik beradi.

**Tanlovda qatnashishni xohlovchilar batafsil ma’lumot olish uchun institut xodimlar bo‘limiga murojaat qilishlari mumkin.**

**Manzil: Oqdaryo tumani Dahbed qo‘rg‘oni, Amir Temur ko‘chasi, 7-uy.**
**Telefonlar: +99893-780-24-84, +99893-231-13-26.**

## “SIYOB DEHQON BOZORI” MCHJ TA’SISCHILARI DIQQATIGA!

**“Siyob dehqon bozori” MCHJ ta’sischilarining navbatdagi umumiy yig‘ilishi 2025-yil 3-mart kuni soat 10:00 da jamiyat ma’muriyati binosida o‘tkaziladi.**

**YIGILISH KUN TARTIBIDA:**

*1. Jamiyat direktorining 2024-yilgi hisoboti.*
*2. “Siyob dehqon bozori” MCHJ kuzatuv kengashining 2024-yilgi hisoboti.*
*3. Jamiyat taftish komissiyasi hisobiti.*
*4. 2024-yil yakunlari bo‘yicha balans va moliyaviy natijalarni tasdiqlash.*
*5. Jamiyatning 2024-yil yakuni bilan auditorlik tekshiruvi o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini aniqlash va unga to‘lanadigan haq miqdorini belgilash.*
*6. Jamiyatning 2025-yilga mo‘ljallangan biznes-rejasini tasdiqlash.*
*7. “Siyob dehqon bozori” MCHJ shtatlar jadvalini tasdiqlash.*
*8. “Siyob dehqon bozori” MCHJ kuzatuv kengashi a'zolarini saylash.*
*9. “Siyob dehqon bozori” MCHJ kuzatuv kengashi taftish komissiyasini saylash.*
*10. Jamiyat avtoturargohlarini “Ishonchli boshqaruv” qilib ijaraga berish.*
*11. Elektron ilova yaratish orqali:*
*- turistlarni jalb qilish;*
*- bozor haqida ko‘proq ma'lumot berish;*
*- milliy qadriyatlar va milliy kontentlarni ko‘paytirish.*
*12. Zamonaviy yer osti (liftli) chiqindixona qurilishiga ruxsat olish va qurish.*
*13. Avtoturagohdagi nazorat punktini ta'mirlash.*
*14. Jamiyatga kirish darvozasining oldida yengil konstruksiyali ayvon qurishga ruxsat olish va qurish.*
*15. Bozor hududida joylashgan savdo do‘konlaridan saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlar to‘g‘risida.*
*16. Boshqa masalalar.*

**Manzil: Samarqand shahri Bibixonim (8-mart) ko‘chasi, 8-uy.**
**Mo‘ljal: “Siyob dehqon bozori” MCHJ ma’muriyati. Murojaat uchun telefon: +99894-849-73-37.**

**“Toyloq Agroservis MTP” MCHJ, “Bulung‘ur Agroservis MTP” MCHJ, “Paxtachi Agroservis MTP” MCHJ va “Oqdaryo Agroservis MTP” MCHJ**

## KREDITORLARI DIQQATIGA!

“Toyloq Agroservis MTP” MCHJ va “Paxtachi Agroservis MTP” MCHJlar ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlari, “Bulung‘ur Agroservis MTP” MCHJ va “Oqdaryo Agroservis MTP” MCHJlar yagona ishtirokchilarining “Toyloq Agroservis MTP” MCHJga “Bulung‘ur Agroservis MTP” MCHJ, “Paxtachi Agroservis MTP” MCHJ va “Oqdaryo Agroservis MTP” MCHJlarni birlashtirish tartibida qayta tashkil qilish to‘g‘risida qarorlari qabul qilinib, shu jamiyatlar ishtirokchilarining 2025-yil 13-fevraldagi qo‘shma umumiy yig‘ilishi qarori bilan “Toyloq Agroservis MTP” MCHJning yangi tahrirdagi ustavi tasdiqlangan.

Ustavda “Toyloq Agroservis MTP” mas’uliyat cheklangan jamiyati “Bulung‘ur Agroservis MTP” MCHJ, “Paxtachi Agroservis MTP” MCHJ va “Oqdaryo Agroservis MTP” MCHJlarning huquqiy vorisi ekanligi belgilangan.

“Toyloq Agroservis MTP” MCHJ ijroiya organi ushbu e’lon chop etilgan kundan boshlab ikki oy muddat ichida kreditorlar o‘z talablari bilan Toyloq tumani Bog‘izag‘on qishlog‘i manziliga murojaat etishlari mumkinligini ma’lum qiladi.

**Murojaat uchun telefon: +99899-026-65-05, +99893-995-35-21.**
**JAMIYAT IJROIYA ORGANI.**

### DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Fayzullayeva Shahzoda Baxromxon qiziga (2023-yil 8-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Gafurov Xasan Saidovichga (2024-yil 26-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Kuchkarov Shodiga (2021-yil 15-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 110-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Ayrapetova Marieta Mixaylovnaga (2023-yil 10-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Djalalova Nigora Amonovnaga (2024-yil 4-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Mirzakulov Raimga (2008-yil 6-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 110-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Begmatov Turakul Ximmatovichga (2024-yil 26-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Karimov Navruz Normurodovichga (2024-yil 17-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko‘chasi, 5-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Murodov Sulton Xolovichga (2024-yil 27-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.**

* * *

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasida marhum Djavburiyev Salim Fayzullayevichga (2023-yil 13-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 48-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Mubin Ne’matjonovich notarial idorasida marhum Axmedov Baxodirga (2016-yil 14-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Mubin Ne’matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko‘chasi, 1-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Mamatqulov Musaga (2018-yil 6-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Zayniqulov Shavkat Najmidinovichga (2024-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 51-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Mansurov Sirojga (2024-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.**

* * *

### BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi “OZOD ASTUTE” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309836004) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand tumanidagi “MAX PRO BUXGALTER” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309551899) dumaloq muhri yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand tumanidagi “SERVICE NEATIVE BALANCE” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311236450) dumaloq muhri yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

# QATAG‘ONNING SO‘NGGI QURBONLARIDAN BIRI



Tuhmat girdobi

**1982-yil 26-iyunda Samarqand viloyati prokurori vazifasini bajaruvchi Bo‘ritosh Mustafoyev O‘zbekiston SSR prokurori Naman Bo‘rixo‘jayev nomiga Abiddin Aliboyevni Samarqand shahar prokurori vazifasiga tayinlash to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi. Unda aytilishicha, A.Aliboyev 1973-yilda Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini bitirgach, Toshkent shahar Sobir Rahimov tumani prokuraturasida ish o‘rganuvchi, tergovchi vazifalarida ishlagan. 1978-yildan O‘zbekiston SSR prokuraturasiga alohida muhim ishlar bo‘yicha tergovchi, 1982-yil may oyidan katta tergovchi lavozimiga o‘tkazilgan. Uning faoliyatiga respublika prokuraturasida ijobiy baho berishgan.**

Buni respublika prokurori o‘rinbosari A.Poplavskiy imzolagan tavsiyanomada, respublika prokurori N. Bo‘rixo‘jayevning SSSR prokurori A.Rekunkov nomiga A.Aliboyevni Samarqand shahar prokurori etib tayinlash to‘g‘risidagi buyrug‘ini tasdiqlashni so‘rab yozgan xatidan ham ko‘rsa bo‘ladi.

Shunday qilib, 1982-yil 25-avgust kuni Abiddin Aliboyev Samarqand shahar prokurori vazifasida ish boshladi. 1952-yilda Payariq tumanida tug‘ilgan A.Aliboyev uchun bu o‘z ukalari, singillari va onasiga yaqinroq bo‘lish uchun bir imkoniyat ham edi. Yosh prokuror ishni yaxshi boshladi. Shahar prokuraturasi jamoasi uning atrofiga jipslashgan holda Samarqandda qonun ustuvorligini ta’minlash, sodir qilingan jinoyatlarni o‘z vaqtida tekshirish va aybdorlarni jazoga tortish uchun barcha choralarni ko‘rishdi. Ishlar shu tariqa davom etayotgandi, yosh prokurorning shahar va viloyat rahbariyati oldida ham obro‘si yaxshi edi.

Lekin 1984-yil oktabr oyiga kelib (bu paytda O‘zbekiston SSR prokurori etib Rossiya federatsiyasidan yuborilgan A.Buturlin tayinlangan edi), ahvol o‘zgardi. Endi viloyat va respublika prokuraturalarida A.Aliboyev faoliyatidan xato topish, qildan qiyiq axtarish harakatiga tushildi. Negadir u O‘zbekiston SSR prokuraturasida tergovchi, katta tergovchi bo‘lib ishlagan davrlarda tergov qilgan ishlar ham qayta chig‘iriqdan o‘tkazila boshlandi. Ana shunday ishlardan biri u rahbarlik qilgan tergov guruhining Namangan viloyati Pop tumani agrosanoat birlashmasi rahbariyati ustidan tushgan shikoyatlarni, ular tomonidan amalga oshirilgan talon-torojlarni tekshirish bilan bog‘liq edi. Bundan tashqari, Respublika prokuraturasi Samarqand shahar prokurori faoliyatini ham taftish qilishni boshladi.

1984-yil 23-oktabrda O‘zbekiston SSR prokurori A.Buturlin 537-sonli buyruqni imzoladi. Unda qisman quyidagilar aytilgandi: *“Samarqand shahar prokuraturasi va ichki ishlar boshqarmasida o‘tkazilgan tekshirish natijasida shu narsa aniqlandiki, shahar prokuraturasi uning zimmasiga yuklangan vazifalarni o‘z vaqtida hamda malakali tarzda bajarmagan. Sodir etilgan jinoyatlarni ochish, aybdorlarni jinoiy javobgarlikka tortish ishlari o‘z vaqtida amalga oshirilmagan... Shaharda sodir etilgan har bir jinoyat uchun jazo muqarrarligi ta’minlanmagan... Ishdan bo‘yin tovlab yurganlar, ichkilikbozlar, jinoyatchilarga qarshi kurash talab darajasida olib borilmagan. Jinoiy ishlar bo‘yicha tergov tadbirlari o‘z vaqtida o‘tkazilmagan...”.*

Xullas, Respublika prokurorining buyrug‘ida keltirilgan “dalillar”dan shunday xulosaga kelish mumkinki, Samarqand shahar prokuraturasiga A.Aliboyev prokuror etib tayinlangandan so‘ng barcha ishlar o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, jinoyatchilikka qarshi kurash umuman amalga oshirilmagan. Shu buyruq asosida A.Aliboyev o‘z vazifasidan ozod qilinadi va prokuratura organlaridan bo‘shatiladi.

A.Aliboyevga oid sud hujjatlari bilan tanishar ekanman, ular orasida yana bir xatga ko‘zim tushdi. Uni aynan keltirishni ma’qul ko‘rdik:

***“O‘zbekiston SSR Davlat xavfsizlik komiteti raisi general-mayor V.A.Golovinga***

*Menga tergov qilish topshirilgan hamda A.Odilov va boshqalarga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoiy ishning o‘ta muhimligi tufayli 1952-yilda tug‘ilgan, O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 152-moddasi 2-qismi bilan ayblanayotgan, Samarqand shahar prokurori lavozimida ishlayotgan Aliboyev Abidinni O‘zSSR DXQning tergov hibsxonasiga joylashtirish haqida ko‘rsatma berishingizni so‘rayman.*

***SSSR Bosh prokuraturasi huzuridagi alohida muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchi, 3-klass davlat adliya maslahatchisi B.Y.Sviderskiy***

23.10.1984-y”.

Shu yerda bir narsaga, ya’ni bu xat yozilgan sanaga e’tibor berishingizni so‘rayman. Demak, A.Aliboyevni vazifasidan ozod qilish haqidagi buyruq va uni Davlat xavfsizlik qo‘mitasi tergov hibsxonasiga joylashtirilishi so‘rab yozilgan maktub bir sanada bitilgan. Ya’ni, hali buyruq Samarqand shahar prokuraturasiga yetib kelmasdan turib, prokuror A.Aliboyev hibsga olinayapti. Mana shu yerda shahar prokuraturasi ishini tekshirish, prokurorlik faoliyatini boshlaganiga endi ikki yil to‘lgan A.Aliboyevni chetlashtirishning sababi – shamol qaysi tomondan esayotganligi, asl maqsad nima ekanligi oydinlashgandek bo‘ladi. Demak, tekshirishlar, ishdan olinish – bu Gdlyan rahbarligidagi tergov guruhi tomonidan yozilgan “ssenariy”ning bir qismi edi, xolos.

“Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” deya butun sobiq ittifoqqa jar solingan, aslida Gdlyan boshliq SSSR bosh prokuraturasi tergovchilari guruhi tomonidan “puflab” shishirilgan yangi qatag‘on domiga o‘zlari olib borayotgan tergov ishlari, qama-qamalar ahamiyatini bo‘rttirish, salmog‘ini oshirish niyatida O‘zbekistondagi ayrim viloyat, shahar va tumanlar prokuraturasi hamda ichki ishlar xodimlari ham tortila boshlagan edi. A.Aliboyev ham ana shunday kishilardan biriga aylandi.

U olti yildan ziyod vaqt sud qilinmasdan tergov hibsxonalarida saqlandi. Unga qanday ayblar qo‘yilgan edi? A.Aliboyev 1981-yil 25-noyabrdan 1982-yil may oylarigacha Namangan viloyatidagi Pop agrosanoat birlashmasida qoramol, qo‘y va echkilarning o‘g‘irlanishi, ushbu tashkilot rahbarlari tomonidan vazifalarini suiiste’mol qilinishiga oid ishni tekshirish bo‘yicha respublika prokuraturasida tuzilgan guruhga rahbarlik qilgan paytida qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yishda ayblangandi. Sviderskiy boshliq tergov guruhi A.Aliboyev agrosanoat birlashmasida 15 marta qoramol va qo‘ylar o‘g‘irlanib, chetga sotilgan holatlarni ataylab yopgan, degan qarorga keladi. Bir emas, ikki emas, har bir holda 15 tadan 50 tagacha bo‘lgan qoramol, 250 ta echki, 100 ta qo‘y go‘yoki agrosanoat birlashmasi rahbariyati va uning atrofida birlashgan jinoiy guruh tomonidan talon-toroj qilingan.

Aslida voqea qanday bo‘lgan? Aliboyev rahbarligidagi tergov guruhi bu ishlarga oid har bir holatni diqqat bilan o‘rganish jarayonida “talon-toroj qilindi”, deyilgan chorva mollari aslida ikki tomon o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida Namangan viloyatidagi turli jamoa va davlat xo‘jaliklariga sotilganiga amin bo‘ldi. Bu yerda hech qanday jinoyat alomati yo‘q edi. Buni agrosanoat kompleksida tekshiruv o‘tkazgan Pogosyan, O‘sarov singari taftishchilar ham tasdiqlagan.

A.Aliboyevga Sviderskiy boshliq SSSR prokuraturasi tergov guruhi tomonidan qo‘yilgan ayblarning ayrimlari o‘zining mantiqsizligi tufayli shu qadar kishi ensasini qotiradiki, ular shundaygina kabinetda o‘tirib to‘qilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Masalan, go‘yoki A.Aliboyev bir necha marta A.Odilovdan so‘yilgan qo‘y go‘shti sifatida jami 278,75 so‘m pora olgan. Buni Sviderskiy guruhi o‘tkazgan tergovda A.Hamroqulov, Haqnazarov, Mirzayusupov kabi guvohlar tasdiqlagan. Lekin shunisi qiziqki, Sviderskiy guruhi Aliboyevni o‘z navbatida A.Odilovga pora berganlikda ham ayblashgan. Ya’ni, u A.Odilovga jami 2020 so‘mlik pora bergan emish. Shu yerda bir savol tug‘iladi. Tergov olib borayotgan shaxs tergovga aybdor yoki guvoh sifatida tortilgan kishiga nega pora berar ekan? Bunga javobni ham Moskvadan kelgan tergovchilar “topib qo‘yishgan”. Go‘yoki A.Aliboyev A.Odilovga O‘zSSR Oliy Sovetining “Faxriy yorlig‘i”ni olish uchun bergan emish.

1992-yilda O‘zSSR prokurori bo‘lib ishlagan N. Bo‘rixo‘jayev va uning o‘rinbosari Zotovning guvoh sifatida shu masala bo‘yicha so‘roqda bergan javoblaridan: *“1982-yilda prokuratura organlarining 60 yillik yubileyi bo‘ldi. Shu munosabat bilan prokuraturaning ko‘pchilik xodimlari taqdirlandi. Ular orasida A.Aliboyev ham bor edi”.*

Shuningdek, ushbu masala yuzasidan guvoh sifatida so‘roq qilingan O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumining o‘sha paytdagi raisi I.Usmonxo‘jayev ham, A.Odilov ham A.Aliboyevning Oliy Sovet “Faxriy yorlig‘i” bilan mukofotlanishiga kimdir aralashganligini qat’iyan rad etadi.

Uning Samarqand shahar prokurori lavozimiga tayinlanishi esa bevosita respublika prokurori buyrug‘iga ko‘ra bo‘lgan va uni SSSR prokurori o‘rinbosari tasdiqlagan.

Xullas, A.Aliboyevga nisbatan Sviderskiy rahbarligidagi tergov guruhi tomonidan qo‘yilgan ayblarning birin-ketin misi chiqa boshladi.

Shu yerda bir masalaga to‘xtalish o‘rinli. U ham bo‘lsa, A.Aliboyevning o‘z qaynotasiga 1983-yil sentabr oyida Moskva yaqinida dam olayotgan paytida (uning boshiga tushgan kulfatlardan bir yil ilgari) yozgan xatidir. Bu xatning nusxasini A.Aliboyevning qaynotasi kuyovining aybsizligini aniqlashda yordam berar, degan umidda tegishli idoralarga topshirgan bo‘lsa ajab emas. Lekin xat aylanib, uni hibsga olib, tergov qilayotgan kishilar qo‘liga kelib tushgan. Buni sud hujjatlaridan ham ko‘rsa bo‘ladi (uning asl nusxasi A.Aliboyevning qaynotasi qo‘lida saqlangani uchun bu xat yo‘q qilib yuborilmagan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas).

O‘sha xatdan ayrim parchalar keltirishni lozim topdik. *“Siz mening 1981-1982-yillarda Pop agrosanoat birlashmasida tergov-tekshiruv ishlarini olib borganligimdan xabardorsiz. Uni tugatganimdan so‘ng menga nisbatan turli ig‘vo va tuhmatlar kuchaydi. Hatto allaqanday notanish kishilar qo‘ng‘iroq qilib, qo‘rqitmoqchi bo‘lishadi. Bir tomondan birlashma rahbariyati dushmanlari mening ham dushmanimga aylanishgan bo‘lsa, boshqa tomondan birlashmada ishlayotgan ayrim o‘rtoqlar menga tish qayray boshladilar. Nima bo‘lganda ham bu ishni o‘z hayotiy tajribam va qonunchilikdan kelib chiqqan holda xolisona hal qildim. O‘sha paytlari men tergov guruhi a’zolaridan ham shuni talab etdim. Bu ish bo‘yicha qo‘lim toza. Guruhning boshqa a’zolari ham vazifasini sidqidildan bajardilar, deb o‘ylayman. O‘tkazilgan tekshiruv bo‘yicha tubdan to‘g‘ri qaror qabul qilindi. To‘g‘ri, ayrim kamchiliklar ham bo‘lishi mumkin. Bu – tekshirish uchun juda kam vaqt ajratilgani, meni va guruhdagi boshqa tergovchilarning tajribasi yetarli emasligi, Markaziy Komitet bilan bog‘lik qog‘ozbozlikning ko‘pligi tufaylidir. Shunisi qiziqki, birlashma rahbariyati biror-bir masalada bizdan yordam so‘rab murojaat etmadi.*

*Birlashma xodimlari bilan bog‘liq ayrim masalalarga to‘xtalib o‘tmoqchiman. Birlashma ishlarini tekshirayotgan kunlarimning birida (1982-yil mart oyida) tergovchi Umarov oldimga To‘xtasin Madaliyev ismli kishini boshlab keldi. Bu odamning aytishi bo‘yicha guruh tergovchilari uchun 1981-yil oktabr oyida uchta qo‘y so‘yilgan emish. Bu haqda hujjat ham tuzilgan ekan. Holbuki, oktabr oyida nafaqat men, balki guruh faoliyatiga jalb etilgan biror-bir tergovchi Popda bo‘lmagan. Men Pop agrosanoat birlashmasiga respublika prokurori ko‘rsatmasiga binoan ilk bor 1981-yil 15-dekabrda kelganman. Madaliyevning aytishicha, bu hujjatlarni Mo‘minjon Odilovning qo‘lida o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Avvaliga, bu ig‘vo degan fikrga bordim. Keyin Madaliyevni o‘zim hibsdan ozod qilganim uchun uning gaplariga ishondim. Shundan keyin tergovchi Umarovga bu haqda hech kimga aytmaslikni tayinlab, Madaliyevdan O‘zSSR prokurori nomiga tushuntirish xati yozdirib olishni tayinladim. O‘sha paylar bunday voqealar bir necha marta takrorlandi.*

*Yaqinda (1983-yil sentabr oyi boshlarida) Umarov Samarqandga kelgan edi. Uning gaplaridan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Popdagi ayrim kishilar hanuzgacha menga qarshi ishlayotgan ekan.*

*Men Mo‘minjon Odilov ishi bo‘yicha xolisona tekshiruv olib borilishini ta’minladim. Faqat u tergovga oid masalalarga tez-tez aralasha boshlagandan so‘ng Ahmadjon Odilovdan uni tartibga chaqirishni so‘radim. Eshitishimcha, u M.Odilovni bu ishlari uchun qattiq xafa qilgan. Balki shu tufaylidir, balki boshqa sabablarga ko‘radir, aniq bilmayman, M.Odilov menga qarshi tish qayrayotganlarning faollaridan biriga aylangan.*

*Lekin shu yerda masalaning ikkinchi tomoniga ham to‘xtalish kerak. Men bu masalani A.Odilovga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan odamlar bilan bog‘liq, deb o‘ylayman.*

*Bu ishni tekshirish davomida Sharif Xismatov tergovning Bo‘riyevga oid qismini harakatdan to‘xtatishimni iltimos qildi. Xismatov hozir O‘zSSR prokuraturasining tergov qismi boshlig‘i vazifasida ishlaydi. O‘sha paytda u juda katta miqdordagi pul (pora) olishim mumkinligiga ham ishora qildi. Men Bo‘riyevga oid ish xolisona hal etilayotganini aytib, uning SSSR prokuraturasi va O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti nazoratida ekanligini ta’kidladim. Umuman aytganda, Bo‘riyev qonuniy javobgarlikka tortilgan.*

*Bu gap Moskvaga kelganimda Xismatov SSSR prokuraturasidagi do‘stlari orqali aynan shu ishga aralashayotganligi ma’lum bo‘ldi. U sudlar ustidan nazorat bo‘limidagi tanishi orqali protest keltirilishiga va oxir-oqibat sud qarorini bekor qilishga erishmoqchi ekan.*

*Uning yaqin tanishi Soroka SSSR Bosh prokurorining o‘rinbosari etib tayinlangandan so‘ng Xismatov nihoyatda g‘ururlanib, boshqalarning o‘zini ham, fikrini ham tan olmay qo‘ydi. Eshitishimcha, Bo‘riyevga oid ishga u Soroka orqali Bajenovni ham jalb qilmoqchi. Balki ular Xismatov Bo‘riyevni Odilovga qarshi qo‘ygan kishilar tomonidan to‘plangan juda katta pulni olganligini bilishmas. Buni ilk bor Xismatov menga Bo‘riyevga nisbatan ochilgan jinoiy ishni to‘xtatishim uchun katta pul olishim mumkinligiga ishora qilganligidan sezgan bo‘lsam, keyinchalik Namangan viloyatining sobiq prokurori Shoamirovdan ham eshitgan edim. Bu pulni to‘plashda katta-katta partiya xodimlari ham ishtirok etishgani meni hayron qoldirdi. Buni hech tushunolmayman...*

*Samarqandda ishlayotgan paytimda men tergovchilardan biriga viloyat davlat savdo inspeksiyasi xodimi O‘runovga ishni tekshirishni topshirdim. Xismatov bu ish bo‘yicha ham mendan tergov harakatlarini to‘xtatishni qat’iyan talab qildi. Har qanday sharoitda ham tergovchiga bunday topshiriqni bermas edim. O‘runov haqida hamma joyda gap-so‘zlar ko‘payib borardi. Viloyat partiya komiteti, shahar partiya komitetiga kirib bo‘lmasdi. Odamlarning prokuraturaga ishonchi susaya boshladi. Chunki O‘runovga hech kim teginishi mumkin emas ekan. Xismatov esa ana shunday shov-shuvga sabab bo‘lgan ishni harakatdan to‘xtatishimni talab qilardi.*

*Men bu topshiriqni bajarmadim. Shunda Xismatov O‘runovga men va tergovchi ustidan tuhmatlardan iborat shikoyat yozdirdi. Guyoki tergovchi tintuv vaqtida qo‘pollikka yo‘l qo‘ygan emish...*

*Shundan so‘ng Xismatov ishni bizdan olib, uni tekshirishni Mirovskiyga topshirdi. Mirovskiy bu ishni tekshirish davomida mendan katta miqdorda pora talab qildi. Xismatov bilan uchrashib, o‘zimning va tergovchining bu ishni olib borishda hech qanday aybimiz yo‘qligini aytdim. Undan “agar ishlashni xohlasang, Mirovskiyning topshirig‘ini bajar”, degan javobni eshitdim. Xismatovga “50000 so‘mni qayerdan olaman”, dedimda xonasidan chiqib ketdim. Chunki yonimda 500 so‘m ham ortiqcha pul bo‘lmagan. Keyinchalik respublika prokuraturasidan kelgan Galashko viloyat prokuraturasida meni xuddi jinoyat sodir etgan kishidek tergov qildi, faqat dalolatnoma tuzmadi. U menga tahdid qilib, “nega Xismatovning topshirig‘ini bajarmading, nega O‘rinovning ishini yopmading”, deb so‘radi. Unga Xismatovning topshirig‘ini tushunmabman, deb javob berdim. Xullas, Xismatov va Mirovskiy O‘runovga oid ishni yopib yubordi.*

*Keyin bilsam, O‘runov respublika Ichki ishlar vazirligining yuqori mansabdorlaridan birining kuyovi O‘runov Olimjonning akasi ekan. Olimjon O‘runov Xismatov, Mirovskiy, Golashkoning yaqin do‘sti bo‘lgan. Shu sababli ularning meni tinch ishlashga qo‘ymasligi aniq. Umuman, shahar hayoti o‘zining chopa-chopu, tashvishlari bilan meni zeriktirgan. Shuning uchun 1982-yilda Markaziy Komitetga o‘tib ishlashga bo‘lgan taklifni ham rad etganman. Men aslida prokuraturadan ko‘ra ilmiy ish bilan shug‘ullanishni afzal bilaman...”.*

Bu yerda A.Aliboyevning qaynotasiga 1983-yil 23-sentabrda, ya’ni uning boshiga tushgan tashvishli kunlardan bir yil oldin yozgan xatini to‘liq keltirishning imkoni yo‘q. Lekin yuqorida bayon etilgan ayrim parchalar ham uning halol, o‘z vazifasiga mas’uliyat bilan yondashgan prokuratura xodimi bo‘lganligidan darak beradi.

Yuqorida keltirganimizdek, 1984-yil oktabrda hibsga olingan A.Aliboyev olti yildan ziyod vaqt sud qilinmasdan hibsxonada saqlandi. Keyin esa 1992-yilning iyunigacha tilxat ostida ochiqlikda bo‘ldi. Nihoyat uning ishi ushbu sanada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Jinoiy ishlar bo‘yicha kollegiyasida Oliy Sud a’zosi A.Popkov raisligida ko‘rib chiqildi. Unga qo‘yilgan eng asosiy ayblardan biri – Pop tumani agrosanoat birlashmasida qoramol va qo‘y-echkilarning o‘g‘irlanishi, talon-toroj etilgani bo‘yicha ishlarni asossiz yopgan, degan ayblar o‘z isbotini topmadi. Bu masala yuzasidan so‘roq qilingan 24 nafar guvoh va taftishchilar Pogosyan, O‘sarovlardan birortasi bunday hol sodir etilganligini tasdiqlamadi. Shuningdek, sud A.Aliboyev yetarli asoslarsiz pora olish va berishda ayblangan, deb topdi. Chunki SSSR prokuraturasining tergovchilar guruhi bu ishga guvoh sifatida tortilgan ko‘plab kishilarga jismoniy va ruhiy bosim o‘tkazib, N.Odilov, Axmadjonov, O.Hamroqulov, R.Haqnazarov, U.Mamayusupov, Sh.Abdurahmonov va boshqalarni A.Aliboyevga tuhmat qilishga majbur etgan. Masalan, guvoh A.Hamroqulov sudda SSSR prokuraturasi tergovchilari uni muntazam ravishda turli prokuraturalarga, O‘zSSR Davlat xavfsizlik komitetiga chaqirib tergov qilishganini, hatto otasini ham olib kelib qamab qo‘yishganini aytib, A.Aliboyevga nisbatan tuhmat gaplarni yog‘dirishga majbur etishganini gapirib berdi.

Sud bundan tashqari yana A.Aliboyevga ayb sifatida tergov hujjatlarida aks ettirilgan boshqa holatlar bo‘yicha ham qator guvohlarning so‘zlarini eshitdi va ularning barchasi tazyiqlar ostida berilgan ko‘rsatmalar bilan tasdiqlanganligiga amin bo‘ldi. O‘zbekiston Oliy Sudining jinoiy ishlar bo‘yicha kollegiyasi A.Aliboyevni barcha holatlar bo‘yicha aybsiz deb topdi va uni to‘liq oqlash haqida qaror chiqardi.

Shundan so‘ng 1992-yil 7-avgustda O‘zbekiston Respublikasi prokurorining 702-sonli buyrug‘i e’lon qilindi. Unda jumladan, shunday deyilgandi:

***“Sobiq Respublika prokurorining 1984-yil 23-oktabrda Aliboyevga nisbatan chiqarilgan buyrug‘i asossiz va qonunga xilof ravishda chiqarilgan.***

***Samarqand shahar prokurori bo‘lib ishlab turgan A.Aliboyevga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazilmagan. Yoki u rahbarlik qilgan shahar prokuraturasining ish faoliyati tekshirilgani, o‘rganilgani to‘g‘risida biron spravka tuzilmagan. Samarqand viloyat yoki Respublika prokuraturasi hay’atida A.Aliboyev haqidagi masala ko‘rilmagan, uni ishdan bo‘shatish haqida viloyat prokuraturasining taqdimi kiritilmagan, xizmat bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan deb hisoblanayotgan nuqsonlar yuzasidan undan tushuntirish xati olinmagan, buyruq bilan tanishtirilmagan. A.Aliboyevning izohiga qaraganda u Respublika prokuraturasiga chaqirtirilib, shu yerda qamoqqa olingan, yuqoridagi buyruq u qamalgandan keyin chiqarilgan.***

***Yuqoridagilarga ko‘ra,***

***BUYURAMAN***

***O‘zbekiston Respublikasi prokurorining 537-sonli 1984-yil 23-oktabrdagi A.Aliboyevni ishdan bo‘shatish haqidagi bo‘yrug‘i qonunga xilof ravishda chiqarilganligi uchun bekor qilinsin.***

***A.Aliboyev prokuratura organlariga ishga tiklansin va bu haqda uning mehnat daftarchasiga lozim bo‘lgan o‘zgartirishlar kiritilsin.***

***O‘zbekiston Respublikasi Prokurori,***
***2-darajali Davlat adliya maslahatchisi***
***B.M.Mustafoyev”.***

Shu tariqa adolat kechikib bo‘lsa-da, tiklangan edi. A.Aliboyev shundan keyin Respublika Prokuraturasi tergov bosh boshqarmasining ichki ishlar organlarida tergov va tekshirish o‘tkazish ustidan nazorat bo‘yicha boshqarmasi boshlig‘i, Toshkent shahar prokuraturasi sudlarda jinoiy ishlarning ko‘rilishida prokurorlik vakolatini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i, Sirg‘ali tumani prokuraturasining tergovchisi vazifalarida xizmat qildi.

Lekin olti yildan ziyod vaqt nohaqliklar tufayli hibsxonalarda o‘tirish, sakkiz yil davomida kechirilgan ruhiy iztiroblar tufayli orttirilgan qand kasalligi oqibatida 1998-yil iyul oyida nafaqaga chiqishga majbur bo‘ldi.

Shundan keyingi hayoti asosan oilasi davrasida o‘tdi va 2014-yil sentabr oyida olamdan o‘tdi.

**Muzaffar MUQIMOV,**
**SamDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi viloyat muzeyi direktori.**

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

**MUASSIS:** **Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

*Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 206 nusxada chop etildi. Buyurtma 100. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2*

***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
**BO‘LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:** **A.SHERXOLOV.**
**Navbatchi:** **A.BAROTOV.**
**Sahifalovchi:** **B.ABDULLAYEV.**

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda